

BOSHLANG'ICH SINF TEXNOLOGIYA DARSLARIDA EKOLOGIK TALIM TARBIYANI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

USANOVA SHAHNOZA, MUHAMMADIYEVA MUSHTARIY - Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti pedagogika fakulteti Ta`lim tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang`ich ta`lim) yo`nalishi magistrantlari

Annotatsiya: ushbu maqola biologik xilma-xillikni o`rganishi va uni saqlab qolish mexanizmini ishlab chiqish, inson ta`siri natijasida kutiladigan xavf-xatarni baholash va oldindan ko`ra bilish, tabiiy resurslarni saqlab qolish, ko`paytirish va undan rasional foydalanish to`g`risida yozilgan.

Kalit so`zlar: tabiat, inson, qadriyat, an`ana, jonli va jonsiz tabiat, ekalogiya.

Bugungi kunda kelajak avlod uchun qayg`urish, keng dunyoqarashga ega bo`lgan naslni yetishtirishga intilish, bizning milliy qadriyatlarimiz biridir. Yosh avlodga atrof-muhit haqida ta`lim-tarbiya berish esa bugungi davrda bizning muqaddas burchimizdir. Xalqimizning qadimiy urf-odat, an`analari hamda zamonaviy ta`lim texnologiyalarni uyg`unlashtirib olib boriladigan ekologik ta`lim-tarbiya bizning yosh avlodimiz bo`lgan bolalarni, avvalo, oilada mакtabda, asta-sekinlik bilan yuqori sinflar, litsey kollejlar va keyingi bosqichlarda ham olib borilsa, qaysi sohada bo`lishidan qat`iy nazar ekologik madaniyatli inson bo`lib yetishadi.

O`zbekiston mustaqillikka erishgach, o`z oldiga milliy qadriyatlarga asoslangan xuquqiy demokratik davlatni qurish va fuqoralik jamiyatini shakllantirishni maqsad qilib qo`ydi. Unda xar bir fuqaro uchun davlat tiliga xurmat, respublika tarixiga e`zoz va o`z vataniga mexr ila yashash imkoniyati yaratildi. Milliy g`oyaga tegishli bo`lgan ushbu uch talabning oxirgisi ekologik tarbiya bilan bevosita bog`liqdir. Chunki ekologik bilim, o`z mazmun va mohiyatiga ko`ra, ekotizimlarda turgan barcha ob`ektlarning biosferada tabiat-jamiyat munosabatlarini uyg`unlashtirishga olib keladi.

Aynan ekologiyaning predmeti davlatning tabiiy sharoiti, tabiiy boyliklari va resurslari, ekologik holati va uni muxofaza qilish yo'llari xamda unga oid ta`lim va tarbiya kabilar bo`lib hisoblanadi.

Har bir xalqning milliy g`oyasi uning maqsad va muddaolarini ifodalaydigan, o`tmishi va kelajagini uzviy bog`laydigan, asriy orzu-istiklaklarini amalga oshirishga xizmat qiladigan ma`naviy omildir. Ekologik bilimlar bilan puxta qurollangan shaxs g`oyaviy tahdidlarga yoki istiqlolimizning kelajagiga shubha tug`diruvchi xar qanday ikkilanishlarga yuqori darajada qarshi tura olishi mumkin. Chunki, istiqlolimizning ahamiyatini yoshlar ongiga singdirishda, bu borada ishonchli dalallarga suyangan holda

ularda Vatanimiz tabiatni xaqida samimiy faxrlanish, g'ururlanish, shu bilan birgalikda qayg'urish kabi tuyg`ularni shakllantirish ekologik ta'lim tarbiyaning bosh vazifasi sanalmog'i lozim. Yer kurrasida yuzaga kelayotgan ekologik nobop muhitning chuqurlashuvida ozmi-ko'pmi O'zbekistonning ham ishtiroki bor.

Mamlakatimizda yashayotgan 34 milliondan ziyod aholining yarmidan ko'pi ekologik xavfli bo'lган muhitda istiqomat qilmoqdalar. Orol dengizi va unung atrofida ro'y berayotgan ekologik inqiroz holati sovet davrining noekologik agrar-iqtisodiy siyosatining natijasidir. Shuning uchun ham davlatimiz, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov ekologik masalalarni iqtiodiy, siyosiy va ijtimoiy istohatlar bilan uyg'unlashtirilgan holda olib borilishi lozim deb topgan va bu siyosat o'zining munosib davomchisi qo'lida yanada yuqori cho'qqilar bilan davom qilmoqda. Mustaqillik yillarda Ozbekiston Respublikasida ekologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha muhim huquqiy, tashkiliy va ijtimoiy iqtisodiy chora tadbirlar ishlab chiqildi va amalga oshirildi.

Ekologiya ya'ni atrof-muhit haqida bilimlarni bolalarga maktab ta'lim bosqichidan boshlab, turli xil didaktik o'yinlar, qiziqarli metodlar orqali tassavvur olami keng boyitildi. O'tkazilgan metodlar ta'sirida bolalar ona tabiat ya'ni bizni o'raby turgan olam haqida, jonli -jonsiz tabiat , inson va tabiat, qolaversa, insonning tabiatga munosabati , tabiatni muhofaza qilish to'g'risida tasavvurlari kengayadi. Darsliklarda berilgan tabiat haqida hikoyalar, ertaklar, hadislar, rivoyatlarda tabiat insonga qanday qilib ma'naviy-axloqiy tarbiyalashi haqida keng, yoritilgan. Ekologik ta'lim uzlusiz olib boriladi, ya'ni u asosan bog'cha va maktabda olib boriladi. Chunki har bir inson bog'cha va maktabda boradi. Barcha bilimlar haqida ilk tushunchani shu maskanlarda oladi. Shu sababdan bog'cha maktab bolalariga ekologik ta'lim berish nazariy, amaliy ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinf o'quvchilari tabiatshunoslik o'quv faniga oid bilim , ko'nikma va malakalarga ega bolishi lozim. Ushbu masalalar ekologik bilimlar bilan bogliq hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ona tabiatni bilishi, uni asrab - avaylash haqida ilmiy bilimlarga ega bolishi kerak.

Biz bilamizki, boshlang'ich sinfda har bir sinfda o'quvchilarda Vatan, Vatanga muhabbat hisi sindiriladi. Vatanga muhabbat bilan vatanni avaylab- asrash ham sindiriladi. Ekologiya – tirik organizmlarning o'zaro maqsadi hamda ular yashayotgan tashqi muhit bilan aloqasi va tirik organizmlar tizimidagi turli-tuman bog'lanishlarni o'rgatadigan fandir.

Bu fan biologiya fanining tarkibiy bo'lagi bo'lishi bilan bir qatorda, kimyo, fizika, geologiya, o'rmonchilik, dehqonchilik, tuproqshunoslik, matematika va boshqa

tabiiy fanlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Birinchi bo‘lib “ekologiya” atamasini nemis olimi E.Gekkel fanga kiritdi, bu atama tirik dunyoning o‘zini o‘rab turgan muhit bilan o‘zaro bog‘liqligini o‘rgatadi.

Ch.Darvin ta’rifi bo‘yicha “yashash uchun kurashish sharoitlarini keltirib chiqaradi”. Ekologiya fanining o‘rganadigan predmeti – tirik organizmlar, populyatsiyalar, turlar, biotik va biosferik darajada tashkil qilingan ekotizim va uning tashqi dunyo bilan o‘zaro aloqasidir. Ekologiyani o‘rganishning bosh obyekti – ekotizim yoki tabiiy komplekslarning birligi, tirik organizmlarning hosil bo‘lishi va ular yashaydigan muhitdir. Ekologiyaning bosh vazifasi – tabiat, jamiyat va ular bog‘liqligining yangi qarashlari, kishilik jamiyatini biosferaning bir bo‘lagi ekanligini boshqalarga o‘rgatishdir.

Atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi munosabatlarni bevosita tartibga soluvchi 15 dan ziyod qonun, tabiiy resurslarning ayrim turlaridan foydalanish mexanizmlari va shartlari, shuningdek, davlat ekologik ekspertizasini amalga oshirish, turli toifadagi qo‘riqlanadigan hududlarni tashkil qilish va ulardan alohida foydalanish rejimini o‘rnatish tartib taomillari va boshqa masalalarni belgilab bergen 30 dan ortiq normativ huquqiy hujjat qabul qilindi va amal qilmoqda.

Qabul qilingan hujjatlar atrof muhit obyektlarining ifloslanish darajasini Qabul qilingan hujjatlar atrof muhit obyektlarining ifloslanish darajasini ma‘lum darajada kamaytirish, qo‘riqlanadigan tabiiy hududlar tizimini rivojlantirish, xalqaro tashkilotlarni milliy ekologik muammolarni hal etishga jalb qilish imkonini berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Abdullayeva Q. va boshqalar “O‘qish ktobim” 2- sinf, T. 2006.
2. Abdullayeva Q., va boshqalar “Savod o‘rgatish darslari” T, “O‘qituvchi” 1996.
3. Azizzoxjayeva N.N. Pedagogik texnolofiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent. 2006.
4. Abdullayeva Q., va boshqalar “Ona tili” T., “O‘qituvchi” 1999.
5. Bo‘ri Ziyamuhammedov, Mamarajab Tojiyev. Pedagogik texnologiya zamонави о‘zbek milliy modeli. Toshkent. 2009.
6. «Kitobim-oftobim» Toshkent. «O‘qituvchi» nashriyoti, 2008.
7. Norbutaevna, N. D., & Kizi, M. R. S. (2022). PEDAGOGICAL SYSTEM FOR FORMING SPIRITUAL COMPETENCE OF STUDENTS IN MODERN

CONDITIONS. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(3), 754-760.

8. Donaeva, N. (2022). PEDAGOGICAL SYSTEM OF FORMING SPIRITUAL MATURITY IN STUDENTS IN INFORMATION ENVIRONMENT. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, 3(12), 64-72.

9. Donayeva, N. N., & Normurodova, F. A. (2021). O'QUVCHILARDA MANAVIY-AXLOQIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY AXBOROT VOSITALARIDAN FOYDALANISH. *Academic research in educational sciences*, 2(NUU Conference 1), 214-216.

10. Donayeva, N. N. T. (2020). ZAMONAVIY AXBOROT MUHITIDA O'QUVCHI YOSHLARNING MA'NAVIY-AXLOQIY QIYOFASINI YUKSALTIRISH. *Студенческий вестник*, (22-8), 65-66.

11. Чарыев, И. Профессор кафедры Педагогики ТерГУ. Однабобоев Фазлидин, Магистрант 2-курса ТерГУ. СОВРЕМЕННЫЕ ПРИНЦИПЫ И МЕТОДЫ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ. *Научно-практический журнал «Энigma» Выпуск № 32 (Апрель 2021.)*, 93.

12. Abdurazakov, F. A., & Meliev, S. K. (2022). Interactive Methods Used In The Formation Of Creative Activity (On The Example Of Primary School Students). *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(1), 257-262.

13. Abdurazakov, F. A., & ugli Odinaboboev, F. B. (2022). Pedagogical importance of using module educational Technologies in the system of continuous education on the basis of modern approaches. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(1), 173-180.

14. Abdunabievich, F. A., Ugli, F. O. B., & Norbutaevna, N. D. (2022). TYPES OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES THAT CORRESPOND TO THE SPECIFICS OF MORAL AND AESTHETIC EDUCATION AND TEACHING OF STUDENTS.

15. Абдуразаков, Ф. (2022, October). ЎҚУВЧИЛАРГА АХЛОҚИЙ-ЭСТЕТИК ТАРБИЯ БЕРИШДА НОТИҚЛИК МАДАНИЯТИНИ ШАКЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. In *E Conference Zone* (pp. 110-115).

16. Абдуразаков, Ф. (2022). ЎҚУВ МАШҒУЛОТЛАРИДА УҚУВЧИЛАРНИНГ НОТИҚЛИК МАДАНИЯТИНИ ШАКЛАНТИРИШ. *Conferencea*, 78-84.